



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 2-iyul

315-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024 yil 27 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ–228-son qarori ijrosi haqida”gi 282-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ–228-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 27 iyundagi 282-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 27 iyundagi 282-6-0-Q/24-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–228-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Bosh prokuraturasining aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirishga qaratilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasini 2025-yil 1-yanvardan joriy etish haqidagi taklifi ma‘qullanganligi;

Virtual akademiya o‘quv faoliyatini tashkil etish va yuritish Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan amalga oshirilishi belgilanganligi;

Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimining ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilanganligi:

aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, yosh avlod ongiga halollik qadriyatlarini singdirish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga mas‘ul hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan davlat xizmati lavozimlaridagi xodimlarning bilim, ko‘nikma va malakalarini doimiy ravishda oshirib borish;

davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini baholash va sertifikatlash hamda sertifikat olgan davlat xizmatchilarining reestrini yuritish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi milliy va xorijiy tajriba, ilmiy, uslubiy va amaliy ishlanmalar, erishilgan yutuqlar bo‘yicha elektron ma‘lumotlar bazasini yuritish;

korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb muammolari yuzasidan ilmiy-tadqiqot dasturlari va loyihalarini, shu jumladan, milliy, xorijiy va xalqaro grantlarni jalb qilgan holda amalga oshirish;

Virtual akademiya o‘qitish quyidagi kontingent uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv dasturlari asosida olib borilishi:

aholi, tadbirkorlik sub‘ektlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari vakillari;

ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o'quvchilari va talabalari; davlat organlari va tashkilotlarining davlat xizmatchilari;

davlat ishtirokidagi korxonalarining xodimlari; Belgilanishicha:

a) Virtual akademiyada o'qitish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bazaviy hamda maxsus o'quv kurslari bo'yicha yo'lga qo'yilishi, bunda:

bazaviy o'quv kurslarida o'qitish barcha foydalanuvchilar uchun bepul asosda tashkil etilishi;  
maxsus o'quv kurslarida malaka oshirish to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi;

b) davlat xizmatchilariga Virtual akademiyaning maxsus o'quv kurslarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirish majburiy hisoblanishi, bunda:

davlat xizmatchisi ishga qabul qilinganidan so'ng uch oy ichida o'quv kursidan o'tishi;

davlat xizmatchilari malakasini oshirishning davriyligi har uch yilda kamida bir martani tashkil etilishi;

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan davlat xizmati lavozimlarida faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar uchun maxsus kurslar chuqurlashtirilgan o'quv dasturlari asosida olib borilishi;

v) davlat xizmatchilari hisoblanmaydigan shaxslarni maxsus o'quv kurslarida o'qitish ixtiyoriylik asosida amalga oshirilishi;

Davlat xizmatchilarining malakasini oshirish bilan bog'liq harajatlar tegishli davlat organi yoki tashkilotiga ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan byudjet mablag'lari doirasida yoxud ularning byudjetdan tashqari mablag'lari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanishi inobatga olinsin.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasining samarali faoliyatini ta'minlash va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha “yo'l xaritasi” tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (U.Narmatov) tegishli tashkilot va idoralar 2025-yil 1-yanvardan boshlab muntazam ravishda xodimlarni Virtual akademiyada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirib borishlarini ta'minlasin.

4. Axborot xizmati (Sh.Kenjayeov), “Mingbuloq” gazetasi (Q.Akbarov) yuqoridagi qarorning mazmun-mohiyatini hamda maqsad va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini tashkil etish tuman hokimining birinchi o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**N.Xudoyberdiyev**